

# **TTPU da 11-oktyabr halqaro qizlar kuni munosabati bilan davra suhbatlari o'tkazildi**

2023 yil 11 oktyabr kuni universitetda da 11-oktyabr halqaro qizlar kuni munosabati bilan "Qaynonam ham onam" nomli interaktiv davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda oilalarni mustahkamlash, ajrimlarni oldini olish hamda turmushga chiqqan qizlarni ta'lim olishda duch keladigan muammolarga yechim topishiga ko'maklashish maqsadida mahallalardagi ibratli oilalar ya'ni qaynona kelinlar hamda univertitetda turmush qurgan talab qizlar o'rtasida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Tadbir mobaynida ibratli qaynonalar kelinlari ta'lim olishida ko'maklashganliklari va o'qimishli kelin tanlashlari sabablarini gapirib berdilar.

Shu bilan bir qatorda tomoshabin talaba qizlar va ishtirokchilar o'rtasida kundalik turmushda uchraydigan savollar berilib viktorina o'tkazildi. G'oliblarga sovg'alar ulashildi.

Shu bilan bir qatorda 11-oktyabr halqaro qizlar kuni munosabati bilan "Turinda go'zal kuz va men" deb nomlangan talaba-qizlar o'rtasida fotolar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ko'rgazmada ishtirok etgan barcha talaba qizlarga tarixiy va hamisha navqiron Samarqand shahriga

"Afrosiyob" poyezdida bir kunlik sayohat uchun chiptalar taqdim qilindi.











